

O'ZBEKISTON VILOYATLARIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI SEKTORIDA IJTIMOIY
VA IQTISODIY O'ZGARISHLARNI BAHOLASH

Rashidov Malik Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Biznesni boshqarish (Master of Business Administration - MBA)
(General) mutaxassisligi sirtqi ta'lif shakli 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15072634>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston viloyatlaridagi qishloq xo'jaligi sektorida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi sektorining modernizatsiyasi, texnologik yangilanishlar, aholi bandligini oshirish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rghanish orqali viloyatlarda yuz berayotgan o'zgarishlar baholanadi. Biroq, texnologik rivojlanishning yetishmasligi va infratuzilma muammolari kabi qiyinchiliklar ham mavjudligi ko'rsatilgan. Ushbu maqola qishloq xo'jaligi sektoridagi kelajakdagi islohotlar va istiqbolli strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy o'zgarishlar, viloyatlar, modernizatsiya, mahsulot ishlab chiqarish, texnologik yangilanish, aholi bandligi, eksport.

**ASSESSMENT OF SOCIAL AND ECONOMIC CHANGES IN THE AGRICULTURAL
SECTOR IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN**

Abstract. This scientific article analyzes the reforms implemented in the agricultural sector in the regions of Uzbekistan and their social and economic impact. The changes taking place in the regions are assessed by studying the modernization of the agricultural sector, technological innovations, increasing employment and studying their impact on economic growth. However, it is shown that there are also difficulties, such as insufficient technological development and infrastructure problems. This article can serve as a basis for developing future reforms and promising strategies in the agricultural sector.

Keywords: Uzbekistan, agriculture, social changes, economic changes, regions, modernization, production, technological innovation, employment, export.

**ОЦЕНКА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В АГРАРНОМ
СЕКТОРЕ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация. В данной научной статье анализируются реформы, проводимые в аграрном секторе в регионах Узбекистана, и их социально-экономическое воздействие.

Оцениваются изменения, происходящие в регионах, путем изучения модернизации аграрного сектора, технологических инноваций, роста занятости и их влияния на экономический рост. Однако было показано, что существуют и такие проблемы, как отсутствие технологического развития и проблемы с инфраструктурой. Данная статья может послужить основой для разработки будущих реформ и перспективных стратегий в аграрном секторе.

Ключевые слова: Узбекистан, сельское хозяйство, социальные изменения, экономические изменения, регионы, модернизация, производство, технологические инновации, занятость, экспорт.

Kirish

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sektori mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Bu sektor nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, balki aholi bandligini oshirishda va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning turli viloyatlarida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yuz berayotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni baholash, bu o'zgarishlarning ijtimoiy hayotga qanday ta'sir ko'rsatishini va iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir o'rnatganligini aniqlash zarurdir. Ushbu maqolada O'zbekistonning viloyatlaridagi qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ijtimoiy-ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilishga harakat qilinadi.

Bilamizki, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni yanada takomillashtirishni, respublika va ma'muriy-hududiy birliklar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ixtisoslashtirish hamda majmuali taraqqiyotni ta'minlashni, mehnat resurslaridan, shuningdek, tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanishni, hududiy rejalashtirish hamda xalq xo'jaligini boshqarish, tarmoq tamoyilining oqilona uyg'unlashuvini talab etadi. Mazkur muammolarning ijobiy hal etilishi ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish va joylashuvini yaxshilashga, ijtimoiy, mehnat hamda tabiiy resursladridan yanada to'laroq foydalanishga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmoq tarkibini takomillashtirishga, takror ishlab chiqarishni yuqori darajasini ta'minlashga imkon yaratadi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish va ixtisoslashtirish yer, mehnat resurslari, asosiy hamda aylanma fondlardan samarali foydalanish imkoniyatini berish bilan bir qatorda ijtimoiy mehnat samaradorligini, yalpi mahsulot hajmining ortishini va shuningdek qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining o'sish sur'atlarini jadallashtirishni ta'minlaydi.

Mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqonchilik hamda chorvachilik tarmoqlarini oqilona joylashtirish, ixtisoslashuvini takomillashtirish ilmiy asoslangan amaliy ko'rsatmalar ishlab chiqarishni tarixiy zarurat sifatida ilgari surdi. Bu esa qishloq xo'jaligida istiqbolli yo'nalishini aniqlashda, uning ishlab chiqaruvchanlik xususiyatini yanada belgilab beruvchi almashlab ekish usullarini joriy etishda, maydon birligidan hosil qilinadigan ekologik jihatdan toza mahsulot miqdorini oshirishda muhim o'rinn tutadi.

Ma'lumki ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning umumiylar qonuniyatlar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy rayonlar tabiiy va mehnat resurslarini maksimal darajada ishlab chiqarishga jalb etish;

- xom ashyni ishlab chiqarishda, qayta ishslash hamda tayyor mahsulotni qayta ishslashda mehnatni har tomonlama iqtisod qilish;

- iqtisodiy rayonlarning majmuali taraqqiyotini va ularning to'g'ri ixtisoslashuvini ta'minlash;

- ayrim rayonlarning iqtisodiy qoloqligini bartaraf etish;

- mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash;

Ilmiy texnika inqilobigina qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlash jarayoniga hal etuvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining bironta tarmog'i ham ilmiy tadqiqotlardan tashqarida rivojiana olmaydi, qishloq xo'jalik taraqqiyotiga ko'maklashadigan bironta tadbir ham ilmiy tadqiqotlardan chetda qolmaydi. Bu gap texnika, mexanika, iqtisod, seleksiya va qishloq xo'jaligi bilan an'anaviy aloqada bo'lgan boshqa sohalargina emas, balki fandagi yangi yo'nalishlarga ham taalluqlidir. Xususan, xo'jalikka fan-texnika yutuqlarini joriy etibgina qolmay, foydalilaniladigan har gektar yerdan barqaror va doimo ortib boradigan hosil olish, shuningdek, butun bir tadbirlar majmuasini amalga oshirsa bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish jarayonlarining barcha elementlarini sifat jihatdan takomillashtirishni talab etadi. Dehqonchilikning barcha tarmoqlarini, chorvachilikni kompleks mexanizatsiyalashtirish, dehqonchilik va chorvachilikka ilg'or texnologiyani joriy etish, xo'jalik jihatdan qimmatli, foydali sifatlarga ega bo'lgan yangi nav o'simliklar va mol zotlarini yaratish ham shu jumлага kiradi.

Ma'lumki, iqtisodiyot tarmoqlari ichida eng qadimiysi qishloq xo'jaligidir. Uning evolyutsion rivojlanishi hududiy tashkil qilish shakllarining murakkablashib borishi va takomillashuvi bilan birga sodir bo'ladi.

Qishloq xo'jalik tarmoqlari-dehqonchilik va chorvachilikning ma'lum hududda joylashtirilishi yoki shtandorti dastlab nemis iqtisodchisi Iogann Genrix fon Tyunen tomonidan 1826-yilda ishlab chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, aynan ana shu olim iqtisodiyot nazariyasida birinchi bo'lib ishlab chiqarishning hududiy jihatiga e'tibor qaratdi, hududiy iqtisodiyot ta'limotiga qo'l urdi, iqtisodiy makon tushunchasini fanga kiritdi. U iqtisodiyotni hududiy tashkil etish masalalariga majmuali, tizimli yondashdi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari joylashuvining qonuniyatlarini ohib berdi.

I.Tyunen o'zining ilmiy g'oyasini abstrakt holatda, alohida, boshqa mamlakatlar bilan bog'liq bo'limgan, ajralib turgan davlat misolida yaratdi. Uning faraz qilishicha, bu mamlakatda atigi bitta shahar mavjud bo'lib, u qishloq xo'jalik mahsulotlarini iste'mol qiluvchi yagona bozor yoki markaz vazifasini o'taydi. Mazkur shahar atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish asosan transport xarajati, mahsulot vazni, uning sifatini buzilmasligi va keltirish masofasi belgilaydi. Aynan ana shu transport omili, uning iqtisodiy jihatlari qishloq xo'jalik tarmoqlarini shahardan uzoq yoki yaqin masofada joylashuv tizimini shakllantirdi. Agar mahsulot yetishtirish va uni markazga keltirish qancha arzon bo'lsa, u shuncha yaqin masofada, aks holda uzoqroqda joylashadi.

Yuqoridagi tartibda qishloq xo'jaligini joylashtirish shahar atrofida o'ziga xos aylanalarni hosil qiladiki, ular ilmiy adabiyotlarda "Tyunen xalqalari" nomi bilan mashhur. Masalan, bu xalqaning eng birinchisi yuqori darajada unumdar shahar atrofi xo'jaligidan iborat bo'lib, undan keyingi xalqa o'rmon xo'jaligi, uchinchisi-meva va urug'chilikdan tashkil topadi. Jami Tyunen 6 xalqa belgilagan; ular, yuqoridagilardan tashqari, turli yo'nalishdagi chorvachilikni ham o'z ichiga oladi.

Albatta, I.Tyunen g'oyasi ma'lum darajada abstrakdir. Chunki, hech qanday davlat, ayniqsa iqtisodiyotning hozirgi globallashuv va boynalminallashuv jarayonida jahon xo'jaligi tizimidan ajralgan holda, alohida rivojiana olmaydi. Qolaversa bu mamlakatda odatda bir emas, bir necha shahar mavjud bo'ladi. Biroq shunga qaramasdan maullifning ushbu ta'limoti o'zining nazariy ahamiyatini, xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida saqlab qolgan.

Chindan ham shahar atrofi qishloq xo'jaligi hozirgi kungacha xalqasimon tashkil etiladi: eng yaqin joyda sabzavot, karam, kartoshka, undan uzoqroqda sut chorvachiligi, donchilik, parrandachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, go'sht-jun chorvachiligi ma'lum tartibda joylashadi.

Bunday hududiy agrotizimning vujudga kelishida transport, bozor omili, mahsulotning arzonligi va xaridorgirligi, sifatining buzulmasligi katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga keyingi yillarda transport infrastrukturasining takomillashuvi, iste'molning xususiylashuvi, "yashil inqilob" qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvi, sanoatning qishloq joylarga kirib borishi kabi yangiliklar, agrobiznes, ya'ni qishloq xojaligini qayta ishlash sanoati bilan uyg'unlashtirish, birlashtirish bu sohaning hududiy tashkil etishga ancha o'zgartirishlar kiritdi. Bundan tashqari, yuqorida qishloq xo'jaligi tarmog'ining faqat bir funksiyasiga, ya'ni uning aholini oziq-ovqatga bo'lган ehtiyojini qondirish tomoniga ko'proq e'tibor qaratildi, xolos.

Agar shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, rus olimi K.I.Ivanovning "geografik konveyr" g'oyasi ham ma'lum mamalakatning yirik markazlarini yil davomida uning turli hududlaridan qishloq xo'jaligi, ayniqsa "shaharbop" mahsulotlar pomidor, bodring, karam, ko'katlar bilan ta'minlab turishdan iborat. Darhaqiqat, oxirgi yillarda Toshkent bozorlarida yuqoridagi mahsulotlar yilning to'rt faslida ham mavjud.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini oshirishda mehnat resurslari va mutaxassislarining ko'pozligiga bog'liqdir. Masalan, o'rtacha 1sentnerdan qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirishda 1,2 ishchi kuchi sarflansa, kartoshka uchun 2,8, paxta uchun 3,5, qand lavlagi uchun 1,3, poliz ekini uchun 7,1, sut boyligi uchun 9,0, ming dona tuxum uchun 21,0, sifatli jun uchun 260 ishchi kuchi sarflanadi.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni o'z navbatida sifatli qilib iste'molchilarga yetkazib berishda qulay transport tizimining hissasi beqiyos bo'lsa, tayyor mahsulotlarni aholiga, korxonalarga tarqatishda savdo xodimlarining ham muhim va iqtisodiy ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi omillar tufayli, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini to'g'ri joylashtirish hamda rivojida ta'sir etadigan omillarning ayrimlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Nº	Tabiiy sharoitning ta'siri	Iqtisodiy sharoitning ta'siri
1	Yerdan foydalanish madaniyati	Birlamchi va ikkilamchi boyliklardan unumli foydalanishga qaratiladi.
2	Qishloq xo'jaligini sifatli suv bilan ta'minlash madaniyati	Texnik yutuqlar ishtiroki ortib borishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi.
3	Mavjud iqlimi boyliklardan oqilona foydalanish	Yirik shahar atrofida ochiq va yopq usulda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'plab yetishtirishda doimiylikka erishish uchun sharoit yaratiladi.
4	Ekologik muammolarni oldini olish, qishloq xo'jaligi xodimlari	Qishloq xo'jaligi suv, tuproq, o'simlik, hamda birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarda

	oldida turgan dolzarb muammo hisoblanadi	ximiyalashtirish o'rnida biotexnologiyani joriy qilish choralari izlab topilishining muammolari: <ol style="list-style-type: none">Yirik omborlarda mahsulotni saqlashsavdo, sotiqda, qishloq xo'jaligi boyligini chiqindisiz ishlashni ta'minlash.Xulosada qo'shimcha ishchi o'rinalarini kengaytirishga yo'l ochiladi.
--	--	---

Ma'lumki, qishloq xo'jaligining ikkinchi muhim funksiyasi qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan ta'minlashdir. Bu sanoat tarmog'ining tarixan vujudga kelishi aholi sonining ko'payib borishi va uning ehtiyojlarini oziq-ovqat, kiyim-kechak faqat tabiiy mahsulotlar bilan ta'minlay olmaslikka bog'liq. O'z navbatida qayta ishlash sanoati mahsulotlarini ko'p va sifatli ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Demak, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ilmiy asoslangan holda oqilona tashkil etish ixtisoslashuvini takomillashtirish qator muhim sotsial-iqtisodiy vazifalarni hal etish imkoniyatlarini beradi.

Bu birinchidan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tabiiy, iqtisodiy, mehnat resurslaridan va xo'jalik bo'g'inlarining ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanish imkoniyatni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan esa, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishini va ixtisoslashuvini takomillashtirish oziq-ovqat muammosini hal etishga, umumiyl salohiyatning o'sishiga olib keladi.

Xulosa

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sektoridagi islohotlar va iqtisodiy o'zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Viloyatlarda yuz berayotgan o'zgarishlar, ish o'rinalari yaratish, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda.

Biroq, ba'zi hududlarda texnologik rivojlanishning yetarli darajada bo'lmasligi, infratuzilma va malakali ishchi kuchi etishmasligi kabi muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish uchun yanada keng qamrovli islohotlar va strategiyalar zarur.

REFERENCES

1. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda” T., “O’zbekiston” 1999 y
2. I.A.Karimov “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” –T., “O’zbekiston” 1997 y.
3. G.R.Asanov., M.Nabixonov., I.Safarov “O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo’g’rofiyasi” T 1994 y.
4. E.Nabiiev., A.Qayumov “O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati” T 2000 y.
5. A.S.Soliyev., L.Qarshiboyeva “Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari” –T 1999 y.
6. A.S.Soliyev va boshqalar “Mintaqaviy iqtisodiyot” T., 2003 y.
7. N.To’qliyev “O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti” –T 1998 y.
8. M.R.Plotkin. «Osnovi promishlennogo proizvodstva». M. Izd. «Vissaya shkola»-1977.
9. SH.Israilov. «Sanoatning eng muhim tarmoqlari texnologiyasi asoslari». T. «O’qituvchi»-1978.
10. V.P.Maksakovskiy. «Geografiya mira». M. Izd. «Prosveshenie»-1990.
11. B.Mirtursunov. «Sanoat, qishloq xo’jaligi va transport asoslari» T.-2001, T.-2001 (Ma’ruza matni), T. -2002.
12. S.Goncharov, S.Nikolaev. «Sovremennaya bumaga» J. «Yuniy texnik» M.-I978.
13. I.V.Matoshko. «Jiznenniye resursi zemli». Minsk. Izd. «Urojaj»-1990.
14. N.V.Alisev. «Ximiya i geografiya». M. Izd. «Znanie»-1970....S
15. V.V.Kulikov. «Jadallashtirish strategiyasi» T. 1990.
16. X.Vaxobov. «Iqtisodiy geografiya asoslari». T. «O’qituvchi»-2001.